

O'ZBEK TILIDA TASVIRIY IFODALAR IDROK MAHSULI

Utegenova O'g'iloy Pardavayevna,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy ifodaning tasavvurda obrazli paydo bo'lishi, ularning xotirada qayta ishlanishi, idrok etilishi va shakllanishi hamda ma'lumotlar to'planishi jarayonlari haqida so'z boradi. O'zbek tilida tasviriy ifodaning kognitiv yondashuv asosida shakllanishi va uning subyekt bilimlariga tayanish jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: idrok, tasviriy ifoda, xotira, bilim zaxirasi, kognitiv yondashuv, lingvomadaniy jihat.

Annotation. This article examines the processes by which images emerge in the imagination are reprocessed in memory, perceived and formed, as well as the processes of information collection. The formation of figurative expression on the basis of a cognitive approach and its reliance on the subject's knowledge are elucidated in Uzbek.

Key words: perception, periphrase, memory, knowledge reserve, cognitive approach, linguocultural aspect.

Аннотация. В настоящей статье рассматривается образное выражение: процессы возникновения образов в воображении, их переработки в памяти, восприятия и становления, а также сбор информации. На узбекском языке освещается формирование образного выражения на основе когнитивного подхода и его опора на знания субъекта.

Ключевые слова: восприятие, перифразы, память, запас знаний, когнитивные подход, лингвокультурный аспект.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tilga bo'lgan munosabat inson omili, uning nutqi va nutqiy vaziyati orqali tadqiq qilinmoqda. Tasviriy ifoda ikkilamchi nomlardan biri bo'lib, obyekt yoki subyekt haqida ma'lumot beruvchi, qayta ishlovchi, baholovchi lisoniy birlik. Tilda yuzaga chiqadigan lisoniy birliklar barchasi inson idroki, tasavvuri, xotira qismida mustahkam o'rtnashadi. So'zlarni to'g'ridan to'g'ri aytmay, balki unga bog'liq bo'lgan ma'lumotlar orqali tinglovchiga yetkazish, nutqni me'yorlashtirish maqsadida tasviriy ifodalar subyekt nutqida faol qo'llaniladi. Olam haqidagi bilimlar tizimi kengaygani sari ma'lumotlar bazasi inson xotira qismida yi g'iladi. Bir obyekt yoki subyekt haqidagi ma'lumot ko'pligi ikkilamchi nom turli tomondan har bir subyektning yondashuviga olib keladi. Masalan, bahor kim uchundir **fasllar kelinchagi**, kim uchundir **uyg'onish fasli**. Har ikki ma'lumot bahor fasliga oid. Eng chiroyli fasl va bahorda tabiatdagi barcha o'simlik va daraxt barg yozishi haqida ma'lumot bor. Shu kabi tasviriy ifodalarda ma'lumot uchrasa, ayrim tasviriy ifoda efemizmlashgan ko'rinishda ifoda maqsadiga ko'ra nutqni me'yor holga keltirish, mentalitetga xos bo'lgan dunyoqarash aks etadi. Har bir lisoniy birlik madaniyat hamda til doirasida subyekt xotira qismida joylashadi. Madaniyatdan tilni alohida tadqiq qilib bo'lmaydi. Har ikki omil inson hayoti davomida u bilan birga yashaydi va ajralmasdir. Tasviriy ifodalarda ko'chim turiga asoslanganligi tufayli millatga xos madaniyat yaqqol ko'rinadi. Efemizmlashgan tasviriy ifoda adresant va adresat uchun tushunarli bo'lgan, bir xil madaniyat ta'sirida yuzaga kelgan ikkilamchi nomdir. Masalan, o'lmoq so'zining bir nechta ikkilamchi nomlar

mavjud. Vafot etmoq, abadiy uyquga ketmoq, so‘nggi manziliga kuzatmoq, omonatini topshirmoq, ayrilib qolmoq, og‘irlashib qolmoq, umr chirog‘i so‘nmoq, tangri rahmatiga olmoq kabi. Ikkilamchi nomlarning bir-biriga o‘xshash jihati inson idrok mahsuli sifatida nutqda yuzaga chiqadi, farqli jihati shundaki, har bir ikkilamchi nomning ifoda maqsadi bir- biridan farqlanadi. Rus tilshunoslari tasviriy ifodani baholovchi, ma’lumot beruvchi, obrazli kabi turlarga ajratadi [S.M.Aleksandrovna “Перифраз как экспрессивное средство языка газеты” автореферат, -9с; Челябинск 2007].

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida tasviriy ifoda hodisasi XX asrning 50-yillarida yuzaga kelgan. Aristotel, Kvantilian tomonidan qayd etilgan ushbu hodisa I.I.Ilina, V.P.Utkina, Sh.Balli, V.G.Kostamorov, V.N.teliya, Y.N.Karaulov, A.B.Novikov, O.S.Issers, A.N.Baranov, M.N.Kojin kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.[И.З.Илина Москва,1954; -с 24]. Xalq tili bilan muayyan bog‘liq ma’lum davrida idodalangan tasviriy birliklar, matbuot nutqi, badiiy matnda uchragan tasviriy ifoda tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilingan.

O‘zbek tilshunosligida R.Qo‘ng‘urov tasviriy ifodani umumiy tarzda o‘rgangan.[R. Qo‘ng‘urov Toshkent-1977; -b 43]. E.Begmatov, I.Yo‘ldoshev, R.Rasulov, H.Shamsiddinov, D.Aytboyev, I.Umirov tasviriy ifodani perifraza, parafrasa atamasi sifatida izohlaydi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashgan va ilk bor monografik planda o‘rgangan tilshunos I.Umirov. Tadqiqotchining nomzodlik dissertatsiyasida tasviriy ifoda olamni qayta idrok etuvchi, mantiqiy mulohaza asosiga qurilishi va jumboq tarzda ifodalanishi haqida ilmiy nazariyalarga tayanadi. Tasviriy ifoda aksariyat hollarda ot so‘z turkumiga oid bo‘lishi, shaklan iboraga o‘xshasa-da, ibora til birligi, tasviriy ifoda nutq birligi haqida mulohazalar keltirilgan. Masalan, **jamiyatning yarasi-o‘g‘ri**, jinoyatchilar, **barcha hunarning toji-bilim, bilim maskani-maktab, ilm zahmatkashlari-olimlar, borliqning gultoji-inson, ko‘zining nuri-farzand, zangori olov-gaz, kuylovchi likopchalar-plastinkalar, osmonning ko‘z yoshi-yomg‘ir, kumush tola-pilla** kabi bir nechta tasviriy ifodaning izohi, ma’nosi keltirilgan. [I.umirov Toshkent-1996; -b 135]. H. Shamsiddinov “So‘zlarning funksional-semantik sinonimlari g‘oyat xilma-xil birliklardan tashkil topadi. Ular orasida tilning eng kichik ma’no anglatuvchi birligi- so‘zdan tortib, soda va qo‘shma gap ko‘rinishidagi birliklargacha ko‘zga tashlanadi, bunda ularning qurilishi erkin, perifrastik, frazeologik xarakterda bo‘lishi mumkin.[H.Shamsiddinov Toshkent-1995; 67B]. Tadqiqotchi oq oltin,kumush tola,zangori olov kabi tasviriy ifodalarni misol sifatida keltiradi. Tasviriy ifoda semantik, stilistik, pragmatik, lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinsa-da, kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan til va tafakkur bilan bog‘langan tilshunoslik barcha yo‘nalishi kognitiv tilshunoslikda kesishadi hamda tadqiqotning obyekti, predmeti intralingvistik, ekstralingvistik jihatni qamrab oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslikda har qanday til va nutq birligi inson tafakkur, idrokiga bilan bog‘langan. Idrok mental tuzilma hisoblanib, uni faqat anglash,

tushunish soʻzlari bilan cheklab boʻlmaydi. Idrok millatga xos qadriyat, madaniyat, individual qarash, olamni anglash, bilimlar tizimi, shaxsning anglangan tushunchaga boʻlgan munosabati, qayta ishlovchi xotira qismidagi mental tuzilma deyish bir muncha oʻrinli. Kognitiv mexanizm sifatida insonning bilim tuzilmasini tashkil qiladigan mental birlikdir. Tasviriy ifodalar kichik guruh 50 nafar 16-17 yoshli oʻsmirlar oʻrtasida savol-javob tarzida tajriba oʻtkazilganda ularning javoblari bir-biriga yaqin ammo takrorlanmas. Buni quyidagi chizma orqali koʻrishimiz mumkin.

| Tasviriy ifodalar | Ishtirokchilar fikri foizlarda ifodalandi | | | |
|-----------------------|---|-------------------|-------------|-----------------------|
| | 12% | 10% | 15% | 13% |
| Bilim maskani | Oʻquv markaz | universitet | maktab | Maktab, universitet |
| Jamiyatning yarasi | jinoyatchi | Fohisha, oʻgʻri | Poraxoʻrlik | Ilmsizlik, dangasalik |
| Barcha hunarning toji | aql | idrok | bilim | salohiyat |
| Aql gimnastikasi | shaxmat | Jumboq, topishmoq | krossvord | Mental arifmetika |
| Bilim bulogʻi | mantiq | ilm | kitob | maktab |
| Tabiatning kushandasi | Yirtqich hayvonlar | brokonerlar | insoniyat | Axloqsiz odamlar |
| Mavjudotlar sultoni | inson | inson | odam | insoniyat |

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalariga koʻra tasviriy ifodada insonning idrok mahsuli, individual dunyoqarash, toʻplangan bilim zaxirasi, qayta ishlovchi, baholovchi bilim tuzilmasidagi yigʻilgan maʼlumotlar majmuyi aks etadi. Xotira qismida joylashgan maʼlumot tasviriy ifodalarda qayta ishlanib, bilimlar asosida yuzaga chiqadi. Har bir ishtirokchining javobi berilgan tasviriy ifodaga mos kelishi mumkin. Birgina javob tasviriy ifodada aks etmaydi chunki bu nutq birligi. Til birligiga aylangan ayrim tasviriy ifodalar ham uchraydi. Masalan, oq oltin-**paxta**, qora oltin-**neft, koʻmir**. Dastlab bu birliklar tinglovchilar uchun notanish boʻlgan, keyinchalik nutqda koʻp bor qoʻllanilgandan soʻng lisoniy birlik sifatida inson xotirasida saqlangan. Bugungi kunda ushbu birliklar hamma uchun tanish, nutqda tayyor, tinglovchi idrok mahsuli sifatida qayta ishlab chiqmaydi. Tasviriy ifoda dinamik holatda, doimiy oʻzgarishda. Inson borliqdan yangi maʼlumot, tajriba, bilimga ega boʻlishi natijasida uning xotira qismida toʻplanadi. Buning natijasida tafakkurdagi yigʻilgan maʼlumot tilda aks etadi. N.I.Jinkin oʻz tadqiqotlarida universal predmet kodi haqidagi nazariyani ilgari surdi. Uning fikricha, inson nutqi dastlab uning ongida amorf-shaklsiz holatda boʻladi. Bu shakl verbal shakl emas, u tasavvur holatida boʻladi. Bu predmet kodi barcha millat vakillari uchun universal xarakterda boʻlib, uni barcha tillarga tarjima qilish mumkin. [K.F.Sedov Moskva-2004; 10-11B]. Tadqiqotchi tilde aks etuvchi har qanday birlik tasavvur, tafakkur, xotira, idrok bilan bogʻligi haqida keltirib oʻtadi. Tasviriy ifoda chuqur bilim asosiga qurilgan, har bir millatning tajriba, madaniyati, dunyoqarashi aks etuvchi nutqiy birlik. Bir predmet, voqea-hodisa yoki subyekt haqida maʼlumot beradi, baholaydi, munosabat bildiradi. Masalan,

bahor elchisi-**qaldirg'och**, **boychechak**, uyg'onish fasli-**bahor**, fasllar kelinchagi ham **bahor**. Tahlildan ko'rish mumkinki, bir tasviriy ifoda bir nechta predmetga taalluqli yoki bir nechta tasviriy ifoda bir predmetga tegishli bo'lishi mumkin. Yuqorida bunga doir misollar keltirildi.

Xulosa va taklif. Zamonaviy tilshunoslikda tilni inson omili, uning vaziyati, psixologiyasi, bilimi, dunyoqarashi bilan tadqiq qilish nafaqat tilshunoslar, tarixchi, etnograf barcha soha vakillari uchun fikrni tez va aniq anglash, tadqiqot metodologiyasini tushunish, ilmiy salohiyatni o'sishiga yordam beradi. Shaxs tili murakkab sababi ichki va tashqi nutq mutlaqo bir-biriga to'g'ri kelmasligi olimlar tomonidan isbotlangan. Tilda tasviriy ifoda aniqdan noaniqlik, aniqdan mavhumlashgan ko'rinishda namoyon bo'ladi. Matn qurshovida uchraydigan tasviriy ifodani pragmatik aspektda o'rganish maqsadga muvofiq. Butun orqali qismni anglash bir muncha matn mohiyati, matn referensiyasi, vaziyatini ochiq ifoda etadi. Alohida olingan tasviriy ifoda nutq vaziyatidan uzilar ekan, uning mohiyatini yoritish murakkablashadi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, tasviriy ifoda nafaqat inson tafakkurining ko'zgusi, balki shaxs dunyoqarshi, bilim egasini ko'rsatuvchi idrok mahsulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Safarov Sh Kognitiv tilshunoslik. Sangzor nashriyoti. Jizzax-2006.-16b
2. Shamsiddinov H. O'zbek tilida semantik-funksional sinonimlar.dok.diss. Toshkent-2007.. -57b.
3. Lakoff G and Johnson M. Metaphors we live by. The University of Chicago press. 2003.-25p.
4. Ashurova D Cognitive linguistics. Tashkent-2018. O'quv qo'llanma.-8b.
5. Umirov I Parafrazalarning badiiy asarlarda qo'llanilishiga doir. O'TA. №-5.1995-yil. 45-46b.
6. Shamsiddinov H So'zlarning funksional-semantik sinonimlari. O'TA.№1. 1995-yil. 65-67b.
7. Xudoyberganova D Matnning antroposentrik tadqiqi. O'zFA. Fan nashriyoti. Toshkent-2013. 16B
8. Vyvan E, Chilton P Language, cognition and space. London-2010. 28p.